

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2025.27.12.R.03.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ARZIQULOV HASAN NORMUROD O‘G‘LI

**TALABALARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI
TAKOMILLASHTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
on the Psychological Sciences**

Arziqulov Hasan Normurod o‘g‘li

Talabalar kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirishning ijtimoiy-
psixologik xususiyatlari 3

Арзикулов Хасан Нормурод угли

Социально-психологические механизмы формирования компетентностного
подхода студентов 21

Arziqulov Hasan Normurod ugli

Socio-psychological mechanisms for the formation of a competency approach of
students 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 48

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2025.27.12.R.03.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ARZIQULOV HASAN NORMUROD O‘G‘LI

**TALABALARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI
TAKOMILLASHTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PHD/P1133 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.psi-ik.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Saidov Azamat Ismoilovich

psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Karshieva Dilafruz Suyunovna

psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sobirova Dilafuruz Abdurazzoqovna

psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi DSc.01/2025.27.12.R.03.02.raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil « 16. 05 » soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; ye-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. 2473 raqam bilan ro'yxatga olingan.) (Manzil: 100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy, Toshkent davlat pedagogika universiteti,).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil « 5 » 05 kuni tarqatildi.

(2026-yil « 5 » 05 dagi 390 - raqamli reyestr bayonnomasi).

K.B. Kadirov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

D.U. Abdullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.E. Muxtarova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon zamonaviy global ta'lim tizimida talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishida kommunikativ kompetensiyani takomillashtirish masalasi ustuvor ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biri sifatida ko'rilmoqda. 2023-yilda UNESCO Institute for Lifelong Learning¹ tomonidan o'tkazilgan xalqaro tahlilga ko'ra, talabalarda kommunikativ kompetensiyani takomillashtirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar orasida 28% motivatsion omillar, 23% shaxslararo kommunikatsiya, 19% o'z-o'zini boshqarish va refleksiya darajasi, 17% ijtimoiy moslashuvchanlik, 13% esa o'quv muhiti va o'qituvchining interaktiv yondashuvi aniqlangan. Ushbu statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, talabalarda kommunikativ kompetensiyani takomillashtirish va uni ijtimoiy-psixologik mexanizmlar orqali samarali rivojlantirish bugungi kundagi dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biriga aylanmoqda.

Jahon ilmiy tadqiqot markazlari va ta'lim muassasalarida talabalar kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganishga alohida ahamiyat berilmoqda. Yevropa Ittifoqining "EduCom" (Educational Competency Development²) loyihasi doirasida Germaniya, Gollandiya, Shvetsiya, Sloveniya va Latviya davlatlarida amalga oshirilgan tajribalar asosida 12 oylik monitoring natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarda tanqidiy tafakkur, ijtimoiy moslashuv va mas'uliyat hissini rivojlantirishga qaratilgan psixopedagogik yondashuvlar natijasida ularning kompetensiyaviy salohiyati 39 foizga oshganligi aniqlangan. Bu esa, zamonaviy ta'lim tizimida kommunikativ kompetensiyani takomillashtirish ijtimoiy-psixologik jarayonlar bilan chambarchas bog'liq ekanini isbotlaydi. Shu munosabat bilan, talabalarda kommunikativ kompetensiyani takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish, ularning shaxsiy, kommunikativ, ijtimoiy va motivatsion kompetensiyalarini har tomonlama rivojlantirish ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda yoshlarning kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish, raqamli va axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida o'qitish, jamoaviy ishlash, tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi" tamoyili asosida, oliy ta'lim tizimida talabaning o'quv faoliyatida shaxsiy faolligini oshirish, uning o'zini anglash, kasbiy-ijtimoiy rolini bajarishga tayyorligini kuchaytirish orqali kommunikativ kompetensiyaga asoslangan pedagogik-psixologik mexanizmlarni takomillashtirish zarurati kun tartibiga qo'yilmoqda³.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son «2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida», 2020-

¹ <https://www.uil.unesco.org/en>

² <https://educomonline.com/>

³ <https://yuz.uz/uz/news/yangi-ozbekiston--maktab-ostonasidan-boshlanadi>

yil 6-noyabrdagi PF-6108-son »O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2021-yil 1-apreldagi PF-6198-son «Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida», 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmonlarida, 2021-yil 1-apreldagi PQ-5047-son «Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», Qarorlarida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-apreldagi 222-son «Ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanib kelayotgan iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2018-yil 12-yanvardagi 24-son «Ilmiy-innovatsion ishlanma va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tadbir etishning samarali xususiyatlarini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlarida hamda faoliyatga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini takomillashtirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz psixologlaridan Sh.R.Baratov, E.G‘.G‘oziev, D.G‘.Muxamedova, Z.T.Nishonova, A.A.Rasulov, N.S.Safoev, R.S.Samarov, G.Sh.Salomova, B.R.Qodirov, K.B.Qodirov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida talabalaridagi kasbiy, kommunikativ, ijtimoiy hamda shaxsiy kompetensiyalar masalasi alohida o‘rin egallagan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan B.G.Ananev, V.G.Afanasev, V.I.Baydenko, I.V.Blauberg, B.C.Gershunskiy, R.I.Ostapenko, V.N.Raskin, Y.V.Sidorenko, V.V.Serikov, V.D.Shadrikov va boshqalar talabalar o‘quv faoliyati samaradorligini ta‘minlovchi omillarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqida tadqiqotlar olib borishgan.

Xorijiy olimlaridan A.Adler, V.A.Dyuk, Dj.Glass, A.Kettle, M.Muller, T.Buchanan, M.F.Green, G.J.Jogerst, A.Jorm, Z.S.Nasreddine, N.A.Phillips, A.Puente va boshqa olimlar o‘z tadqiqotlarida kommunikativ kompetensiyaga ta‘sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillar o‘rganilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqot Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasidagi PZ-202005236-raqamli «Talabalar kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari» mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan (2024-2025 yy.).

Tadqiqotning maqsadi talabalar kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalar kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirishga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish;

talabalar kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirishda tizimli fikrlash darajasi bevosita ta'sirini tadqiq etish;

talabalar kommunikativ kompetensiyasining namoyon bo'lishiga bog'liq ravishda empatiya darajasi hamda intellekt tiplarini strukturaviy tahlil qilish;

talabalar kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik psixotexnikalarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida talabalar kompetensiyaviy yondashuvini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tanlangan bo'lib, tadqiqotga Samarqand davlat davlat chet tillar instituti 120 nafar, Buxoro davlat universitetidan 100 nafar hamda Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali 90 nafar, jami, 310 nafar talabalar ya'ni respondent sifatida jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini talabalar kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda kuzatish, suhbat metodlari, kontent tahlil, shuningdek, G.Gardner «Intellekt tiplarini aniqlash» metodikasi, V.V.Boykning «Empatiya darajasini diagnostikasi», V.Ryaxovskiyning «Muloqotga kirishuvchanlik» metodikasi hamda hammualliflikda (A.I.Saidov; H.N. Arziqulov) ishlab chiqilgan «Talabalar kommunikativ kompetensiyasini aniqlovchi so'rovnomasidan» foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik statistika metodlaridan Styudentning t-mezoni, K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsiyenti orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalar kommunikativ kompetensiyalari o'quv guruhlaridagi gorizonttal munosabatlarning ta'lim bosqichlariga bog'liq o'ziga xos jihatlarga ko'ra ikkinchi bosqich talabalarida verbal va noverbal signallarni idrok qilish, ikkinchi bosqich talabalarida esa o'zini o'zi rivojlantirish ko'nikmalarini shakllanishiga identiv namoyon bo'lishi aniqlangan;

talabalar kommunikativ kompetensiyalarini takomillashtirishda muloqotdagi axborotlarga nisbatan empatiyaviy senzitivlikka asoslanib, verbal va noverbal ma'lumotlarga nisbatan rasional, shaxsning o'zini rivojlantirishiga nisbatan esa intuitiv hamdardlikning etakchi ijtimoiy psixologik xususiyat ekanligi dalillangan;

talabalar kommunikativ kompetensiyalarini takomillashtirishda lingvistik, matematik-mantiqiy intellektning muloqotni idrok qilish, tushunish orqali o'z ustida ishlash ko'nikmasi bilan o'zaro ta'sirlashuviga asoslanib shaxslararo munosabatlardagi empatiyaning intellektual xususiyatlarga integrativ namoyon bo'lishi muhim ekanligi aniqlangan;

talabalarda kommunikativ kompetensiyalarni takomillashtirishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari o'zaro munosabatlardagi ijtimoiy bilimlar va strategiyalarni muloqotdagi motivasion to'siqlarni engib o'tishga ta'siriga asoslanib tinglay olish va fikrni aniq ifodalash ko'nikmasining hissiy rakursda rasional namoyon bo'lishiga bog'liq ekanligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

talabalarda kommunikativ kompetensiyani takomillashtirish va unga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik mexanizmlarga oid ilg'or nazariy manbalar, zamonaviy yondashuvlar va ilmiy adabiyotlar chuqur tahlil qilinib, amaliy metodlar ishlab chiqilgan va joriy etilgan;

talabalarda kommunikativ kompetensiyani takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik trening dasturi, uning tarkibiy qismlari sifatida shaxslararo kommunikatsiya, motivatsion barqarorlik, ijtimoiy moslashuvchanlik va o'z-o'zini baholash darajasi kabi omillar aniqlangan hamda mazkur omillarni rivojlantirishga qaratilgan psixologik trening dasturi tayyorlangan;

talabalarda kommunikativ kompetensiyani takomillashtirishni ta'minlovchi kommunikativ kompetensiya, axborotli kompetensiya, ijtimoiy kompetensiya va o'z-o'zini rivojlantirish darajasini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, xalqaro miqyosda tan olingan metodik vositalar, ma'lumotlarning reprezentativligi, empirik tadqiqotlar ilmiy-nazariy chuqur asoslab berilganligi; aniqlangan ko'rsatkichlarning ishonchli ilmiy manbalarga asoslanganligi; psixometrik talablarga javob beradigan psixodiagnostik usullardan foydalanilganligi; empirik natijalarning maqsadga muvofiq tahlil qilinganligi, natijalar «Ms Excel», «SPSS 22.0» dasturlari vositasida qayta ishlanganligi; ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati talabalarda kommunikativ kompetensiyani takomillashtirish xususiyatlarini aniqlash, shaxslararo kommunikatsiya, ijtimoiy moslashuvchanlik, motivatsion barqarorlik va o'z-o'zini baholash kabi individual-psixologik xususiyatlarni kompleks o'rganish hamda ularni takomillashtirishga ta'sir etuvchi omillarni tizimli tahlil qilish imkonini berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, olingan natijalar asosida ishlab chiqilgan nazariy fikrlar, ilmiy xulosalar va tavsiyalar «Umumiy psixologiya», «Psixodiagnostika», «Eksperimental psixologiya va praktikum», «Pedagogik psixologiya», «Ijodiy psixologiyasi», «Psixologik xizmat asoslari», «Konsultativ psixologiya» kabi fanlarning mazmunini boyitadi va ta'lim muassasalarida kommunikativ kompetensiyani takomillashtirish bo'yicha amaliy faoliyatlarni samarali tashkil etishda xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. «Talabalarda kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari»ni o'rganish bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida:

talabalarining kommunikativ kompetensiyalari o'quv guruhlaridagi gorizonttal munosabatlarning ta'lim bosqichlariga bog'liq o'ziga xos jihatlariga ko'ra ikkinchi bosqich talabalarida verbal va noverbal signallarni idrok qilish, ikkinchi bosqich talabalarida esa o'zini o'zi rivojlantirish ko'nikmalarini shakllanishiga identiv namoyon bo'lishi aniqlanganligiga oid ilmiy yangilik O'zMPU huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 23-avgustdagi PM-421-son

buyrug'iga asosan markaz qoshidagi psixologlami qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi o'quv rejasining "Ijtimoiy psixologiyasi. Etnopsixologiya" moduliga singdirilgan (O'zMPU huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2025-yil 20-avgustdagi PM 421a-son ma'lumotnomasi). Natijada talabalar kompetensiyaviy yondashuvini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan;

talabalarining kommunikativ kompetensiyalarini takomillashuvida muloqotdagi axborotlarga nisbatan empatiyaviy senzitivlikka asoslanib, verbal va noverbal ma'lumotlarga nisbatan rasional, shaxsning o'zini rivojlantirishiga nisbatan esa intuitiv hamdardlikning etakchi ijtimoiy psixologik xususiyat ekanligi dalillanganligiga oid yangilik O'zMPU huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2025-yil 23-avgustdagi PM-421-son buyrug'iga asosan O'zMPU huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2025-yil 23-avgustdagi PM-421-son buyrug'iga asosan markaz qoshidagi psixologlami qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi o'quv rejasining "Ijtimoiy psixologiyasi. Etnopsixologiya" moduliga singdirilgan (O'zMPU huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2025-yil 20-avgustdagi PM 421a-son ma'lumotnomasi). Natijada talabalar kompetensiyaviy yondashuvini shakllanishida tizimli fikrlash darajasi bevosita ta'siri tadqiq etilgan;

talabalarining kommunikativ kompetensiyalarini takomillashtirishda lingvistik, matematik-mantiqiy intellektning muloqotni idrok qilish, tushunish orqali o'z ustida ishlash ko'nikmasi bilan o'zaro ta'sirlashuviga asoslanib shaxslararo munosabatlardagi empatiyaning intellektual xususiyatlarga integrativ namoyon bo'lishi muhim ekanligi aniqlanganligiga oid ma'lumotlar O'zMPU huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2025-yil 23-avgustdagi PM-421-son buyrug'iga asosan O'zMPU huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2025-yil 23-avgustdagi PM-421-son buyrug'iga asosan markaz qoshidagi psixologlami qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi o'quv rejasining "Ijtimoiy psixologiyasi. Etnopsixologiya" moduliga singdirilgan (O'zMPU huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2025-yil 20-avgustdagi PM 421a-son ma'lumotnomasi). Natijada talabalar kompetensiyaviy yondashuvini namoyon bo'lishiga bog'liq ravishda empatiya darajasi hamda intellekt tiplari strukturaviy tahlil qilingan

talabalarda kommunikativ kompetensiyalarni takomillashtirishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari o'zaro munosabatlardagi ijtimoiy bilimlar va strategiyalarni muloqotdagi motivasion to'siqlarni engib o'tishga ta'siriga asoslanib tinglay olish va fikrni aniq ifodalash ko'nikmasining hissiy rakursda rasional namoyon bo'lishiga bog'liq ekanligi dalillanganligiga oid yangilik O'zMPU huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2025-yil 23-avgustdagi PM-421-son buyrug'iga asosan O'zMPU huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2025-yil 23-avgustdagi PM-421-son buyrug'iga asosan markaz qoshidagi psixologlami qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi o'quv rejasining "Ijtimoiy psixologiyasi. Etnopsixologiya" moduliga singdirilgan (O'zMPU huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2025-yil 20-avgustdagi PM 421a-son ma'lumotnomasi). Natijada talabalar kompetensiyaviy yondashuvini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik psixotexnikalari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shundan 3 tasi respublika, 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

DISSERTATSIYASINING ASOSIY MAZMUNI

«**Kirish**» qismda dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalar belgilangan, tadqiqotning metodlari, obykti va predmeti ko'rsatilgan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotda tadbiiq etilishi, ilmiy nashrlarda e'lon qilinishi, dissertatsion ishning tuzilishi yuzasidan ma'lumot keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Talabalarda kommunikativ kompetensiyani takomillashtirishning nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida kommunikativ kompetensiyamuammosiga oid ilmiy manbalarni tahlil qilish va tadqiqot maqsadiga mos ravishda tizimlashtirish maqsadida chet el psixologiya maktabi namoyandalari, shuningdek, mamlakatimiz psixolog olimlarining tadqiqotlari keltirilgan.

Mazkur bobda talabalar kommunikativ kompetensiyani takomillashtirishga oid ilmiy izlanishlar, dunyoning ilmiy tadqiqot markazlari va oliy ta'lim muassasalari tomonidan olib borilgan izlanishlarning empirik ma'lumotlari tahlili keltirilgan. Talabalar kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirish muammosi o'zbek psixologlaridan B.S.Abdullayeva, A.M.Nazarov, Sh.Sh.Rustamov, G.O.Askarova, F.F.Ganjiyev, A.M.Shonazarov, D.A.Sobirova, I.I.Hojiboyev, D.D.Oribboyeva, I.M.Latipov, S.S.Narzulloyeva va boshqalar bilan bir qatorda, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlaridan A.A. Derkach, A.V. Khutorskiy, V.A. Slastenin, V.V.Serikov, N.V.Kuzmina, E.F.Zeer, A.K.Markova, L.M.Mitina, V.A.Boloto, O.G. Smolyaninova hamda xorij olimlaridan H.Gardner, R.Sternberg, D.Goleman, R.Boyatzis, L.M.Spencer, S.M.Spencer, J.Raven, P.Tynjala, J.Delors, B.Mulder, J.Eraut. va boshqalarning ilmiy izlanishlari tahlili berilgan.

Dissertatsiyaning «**Talabalar kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirishning empirik asoslari**» deb nomlangan ikkinchi bobi o'rganilayotgan muammoning empirik tahliliga bag'ishlangan bo'lib, ushbu bobda tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, tadqiqotda qo'llanilgan metodlarning umumiy tavsifi, o'tkazish tartibi, olingan natijalarning tahliliga asoslangan korrelyatsion bog'lanishlar izohi o'z aksini topgan.

Dastlab, "Talabalar kommunikativ kompetensiyasini aniqlovchi so'rovnomasi" bo'yicha olingan dastlabki natijalar tahliliga o'tamiz.

Metodikaning dastlabki "kommunikativ kompetensiya" omiliga ko'ra, 4-bosqich talabalarida yuqori natijalar kuzatildi ($t=-2,1$; $p\leq 0,05$). Talabalarda

kommunikativ kompetensiya shakllanishi ta'lim jarayonining shaxslararo muloqotga yo'naltirilgan ijtimoiy-psixologik omillar bilan boyitilishi natijasida yuzaga keladi.

1-jadval

**“Talabalar kommunikativ kompetensiyasini aniqlovchi so‘rovnomasi”
bo‘yicha olingan dastlabki natijalar (n=310)**

Shkalalar Nomi	O‘rtacha(M)		t
	2-bosqich n=160	4-bosqich n=150	
Kommunikativ kompetensiya	9,6	11,3	-2,1*
Axborotli kompetensiya	10,3	11,2	-1,5
Ijtimoiy kompetensiya	8,7	10,8	-2,7*
O‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi	11,4	9,3	-2,3*

Yuqori bosqich talabalarida bu kompetensiya turining rivojlanishi, ularning ko‘proq akademik va amaliy tajribaga ega bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu holat faol muloqotga tayyorlik darajasini oshiradi. O‘qituvchilar va tengdoshlar bilan samarali axborot almashinuvi kommunikativ kompetensiyaning ichki xususiyatlarini mustahkamlaydi. Ijtimoiy o‘zaro ta’sirning ko‘p sonli shakllari, ayniqsa guruh ishlar va taqdimotlar orqali talabalarda o‘z fikrini aniq va ravon ifoda eta olish malakasi ortadi. Shuningdek, ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan, muloqotda empatiya va tinglash madaniyatining rivojlanishi kommunikativ ko‘nikmalarning tarkibiy qismini tashkil etadi. Muloqotdagi intellektual va emotsional uyg‘unlik talabalarni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlaydi, bu esa ijtimoiy-psixologik mexanizmlarning amaliy qiymatini belgilaydi.

Metodikaning navbatdagi “ijtimoiy kompetensiya” omiliga ko‘ra, 4-bosqich talabalarida ijobiy natijalar aniqlandi ($t=-2,7$; $p\leq 0,05$). Ijtimoiy kompetensiyaning yuqori bosqich talabalarida orasida ijobiy ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi, ularning jamoaviy muhitda erkin harakat qilish qobiliyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu kompetensiya ijtimoiy rollarni anglash, ularni moslashtirish va o‘z xatti-harakatini mos ravishda tartibga solish orqali shakllanadi. Mazkur kompetensiyaning rivoji ijtimoiy o‘zini anglash, ijtimoiy identifikatsiya va ijtimoiy motivatsiyani o‘z ichiga oladi. Bu jarayonning samaradorligi ijtimoiy-iqtisodiy omillar, jamoaviy tazyiqlar va shaxslararo munosabatlar tizimi orqali ta’minlanadi. Jamiyatga ijtimoiy foydali faoliyat bilan integratsiyalashgan talabalar o‘zlarini muhim subyekt sifatida his qiladilar, bu esa ularning ijtimoiy ongini mustahkamlaydi. Shu orqali ijtimoiy kompetensiya shaxsiy taraqqiyot va ijtimoiy adaptatsiyaning muhim ko‘rsatkichi sifatida talqin qilinadi.

“O‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi” omili bo‘yicha, 2-bosqich talabalarida yuqori natijalar qayd etildi ($t=-2,6$; $p\leq 0,05$). O‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasining 2-bosqich talabalarida yuqori darajada namoyon bo‘lishi, ayniqsa, ularning shaxsiy izlanishlarga bo‘lgan ehtiyoji bilan izohlanadi. Bu kompetensiya talabaning o‘z kuchiga ishonch, ichki motivatsiya va individual taraqqiyotga bo‘lgan intilishi bilan bevosita bog‘liqdir. Ijtimoiy-psixologik yondashuvda o‘zini rivojlantirishga intiluvchi shaxs o‘z faoliyatini ongli ravishda tahlil qiladi va maqsadli yo‘naltiradi. Ta’limning ilk bosqichlarida o‘zini anglash, o‘z

ustida ishlash va yangi bilimlarni egallash istagi kuchli bo‘ladi, bu esa ularni rivojlanishga undovchi muhitda faol harakat qilishga majbur etadi. Ular o‘z oldilariga aniq maqsadlar qo‘yib, individual rejalar asosida harakat qiladilar. Akademik va psixologik o‘z-o‘zini baholash jarayonlari orqali talabalar o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini tahlil qiladilar. Natijada, o‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi shaxsiy tashabbus va hayotiy pozitsiyani faollashtirishga xizmat qiluvchi kuchli psixologik tayanch sifatida shakllanadi.

Endi, “Talabalar kommunikativ kompetensiyasini aniqlovchi so‘rovnomasi” bo‘yicha qizlar hamda yigitlardan olingan natijalar tahliliga to‘xtalamiz.

2-jadval

“Talabalar kommunikativ kompetensiyasini aniqlovchi so‘rovnomasi” bo‘yicha qizlar hamda yigitlardan olingan natijalar (n=310)

Shkalalar Nomi	O‘rtacha (M)		t
	Qizlar n=145	Yigitlar n=165	
Kommunikativ kompetensiya	11,1	9,7	-2,4*
Axborotli kompetensiya	9,6	11,5	-2,5*
Ijtimoiy kompetensiya	8,4	9,5	-1,6
O‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi	8,7	11,2	-2,1*

Metodikaning dastlabki “kommunikativ kompetensiya” omiliga ko‘ra, qizlarda yuqori natijalar kuzatildi ($t=-2,4$; $p\leq 0,05$). Qizlarda kommunikativ kompetensiyaning yuqori darajada namoyon bo‘lishi, ularning tabiiy emotsional sezgirligi va shaxslararo munosabatlarga nisbatan ijtimoiy intuitsiyasi bilan izohlanadi. Ular muhokama jarayonlarida ijtimoiy rol o‘ynashga ko‘proq moyil bo‘lib, bu holat verbal va noverbal ifoda vositalarini faol qo‘llashda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Psixologik jihatdan qizlar emotsional aks-sado berish, empatiya ko‘rsatish va murosaga kelish qobiliyatiga ega bo‘lib, bu ularning muloqot strategiyalarini samaraliroq qiladi. Akademik muhitalarda ular ko‘pincha kommunikativ vositachi yoki jamoa bog‘lovchisi sifatida harakat qiladilar. Shuningdek, kommunikativ kompetensiyaning o‘shishi ularning professional faoliyatda samarali jamoaviy ish olib borish salohiyatini belgilaydi.

Metodikaning navbatdagi “axborotli kompetensiya” omiliga ko‘ra, yigitlarda ijobiy natijalar aniqlandi ($t=-2,5$; $p\leq 0,05$). Axborotli kompetensiyaning yigitlarda yuqori darajada namoyon bo‘lishi ularning texnologik muhitga tez moslashish, tizimli fikrlash va axborot oqimini boshqarish qobiliyatlari bilan bog‘liqdir. Yigitlar ko‘pincha raqamli vositalarni o‘rganish va qo‘llashda yuqori tashabbus ko‘rsatib, mustaqil axborot qidiruvini puxta tashkil etadilar. Analitik tafakkurga ega bo‘lgan yigitlar mavjud axborotni saralash, tahlil qilish va uni amaliyotga tatbiq etish borasida yuqori samaradorlikka erishadilar. Shuningdek, ular o‘zlarining texnologik bilimlarini yangilab borishga intilishadi, bu esa axborotli kompetensiyaning doimiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Ijtimoiy-psixologik jihatdan, yigitlar ko‘proq ob‘ektivlik va logik asosga tayanib axborot bilan ishlashadi, bu ularni raqamli muhitda faol shaxs sifatida namoyon qiladi. Ular uchun mustaqil o‘quv faoliyati va o‘z-o‘zini ta’minlash motivatsiyasi axborotli resurslarni chuqur o‘zlashtirishga sabab

bo'ladi. Axborotli kompetensiya raqamli savodxonlik, analitik mulohaza yuritish va mustaqil qaror qabul qilishning muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanadi. Umuman olganda, yigitlar axborot oqimi bilan samarali ishlash orqali o'z intellektual salohiyatlarini faol namoyon etadilar.

“O‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi” omili bo‘yicha, yigitlarda yuqori natijalar qayd etildi ($t=-2,1$; $p\leq 0,05$). Yigitlar orasida o‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasining yuqori ko‘rsatkichlari, ularning shaxsiy erkinlik, mustaqillik va qaror qabul qilishga tayyorlik bilan bog‘liq bo‘lgan motivatsion xususiyatlaridan dalolat beradi. Shaxsiy o‘shishga yo‘naltirilgan harakatlar, xususan, mustaqil rejalashtirish, o‘z-o‘zini tahlil qilish va intellektual izlanishlar yigitlarda faol namoyon bo‘ladi. Bu kompetensiyaning shakllanishi ijtimoiy-psixologik muhitga bog‘liq bo‘lib, ijobiy turtki va qo‘llab-quvvatlovchi omillar mavjud bo‘lsa, yigitlarda o‘zini rivojlantirishga kuchli intilish kuzatiladi. Bu kompetensiya shaxsiy rejalashtirish, intizom va vaqtni boshqarish ko‘nikmalari bilan to‘ldirilgan bo‘lib, ular orqali yigitlar mustaqil hayotga tayyor bo‘ladilar. Psixologik jihatdan, o‘z ustida ishlovchi yigitlarda mustahkam irodaviy sifatlar shakllanadi, bu esa ularni hayotda muvoffaqiyatga erishishda kuchli tayanchga aylantiradi. Shu bilan birga, bu kompetensiyaning shakllanishi jamiyatga moslashuvchan, javobgar va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxslarni tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlillar asosida aniqlanishicha, talabalar kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirishda gender omili muhim ijtimoiy-psixologik determinant sifatida namoyon bo‘lmoqda. Jumladan, qizlar orasida kommunikativ kompetensiyaning yuqori namoyon bo‘lishi, ularning shaxslararo munosabatlarga ijtimoiy sezgirlik va emotsional intuitsiya bilan yondashishini ko‘rsatadi. Shunday qilib, talabalarda kompetensiyaviy yondashuvni samarali takomillashtirish, har bir jins vakilining ichki psixologik ehtiyojlari, o‘ziga xos kognitiv, affektiv va motivatsion imkoniyatlari asosida differensial yondashuvni talab qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim strategiyalarini qayta ko‘rib chiqish, psixologik xizmatlar faoliyatini individuallashtirish va ijtimoiy-psixologik resurslardan maqsadli foydalanishni zarurat darajasiga ko‘taradi.

3-jadval

**“Talabalar kommunikativ kompetensiyasini aniqlovchi so‘rovnomasi”
hamda V.V.Boykoning “Empatiya darajasini aniqlash diagnostikasi” orqali
olingan korrelyatsion bog‘lanishlar (n=310)**

Omillar	Kommunikativ kompetensiya	Axborotli kompetensiya	Ijtimoiy kompetensiya	O‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi
Empatiyaning ratsional kanali	0,13	0,34*	0,15	0,17
Empatiyaning hissiy kanali	0,17	0,17	0,19	0,12
Empatiyaning intuitiv kanali	0,11	0,12	0,14	0,41*
Empatiyaga imkon beruvchi ustanovkalar	0,31*	0,15	0,16	0,13
Empatiyaning kirishish qobiliyati	0,15	0,11	0,33*	0,17

Navbatdagi bosqichda, “Talabalar kommunikativ kompetensiyasini aniqlovchi so‘rovnomasi” hamda V.V.Boykoning “Empatiya darajasini aniqlash diagnostikasi” orqali olingan korrelyatsion bog‘lanishlar tahliliga diqqatimizni qaratamiz.

Korrelyatsion bog‘lanishlar tahliliga ko‘ra, talabalar tomonidan namoyon etilgan “kommunikativ kompetensiya” darajasi ularning “empatiyaga imkon beruvchi ustanovkalar”ga ega bo‘lishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi ($r=0,31$; $p\leq 0,05$). Jumladan, muloqot jarayonida faol ishtirok etuvchi talabalar odatda boshqalarning emotsional holatiga nisbatan ochiqlik ko‘rsatishga tayyor bo‘ladilar. Natijalar tahliliga ko‘ra, muloqotga ijobiy munosabat va shaxslararo aloqalarda faol bo‘lish empatiya uchun zarur psixologik fondan dalolat beradi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘z fikrini ochiq ifoda eta oladigan, boshqalarni diqqat bilan eshitadigan shaxslar o‘z-o‘zidan empatik sezgirlikni ham kuchaytiradilar. Shu ma‘noda, “kommunikativ kompetensiya” kuchli bo‘lgan shaxslar, odatda, boshqalarning holatiga kirishishga nisbatan ochiqlik va tayyorgarlik bilan ajralib turadilar. Shuningdek, talabalar guruhida empatiya va muloqot darajasi o‘zaro boyituvchi psixologik mexanizmlar sifatida ishlaydi.

Natijalar tahliliga ko‘ra, talabalarda rivojlangan “axborotli kompetensiya” ularning “empatiyaning ratsional kanali” orqali boshqalar holatini ongli va tahliliy anglashga moyilligini oshiradi ($r=0,34$; $p\leq 0,05$). Jumladan, ma‘lumotlar bilan ishlash, tahlil qilish va mantiqiy xulosa chiqarish malakasi boshqalarning hissiy holatlarini nazoratli idrok etishga zamin yaratadi. Shuningdek, ratsional empatiya – shaxsning boshqalarning ruhiy kechinmalarini emotsional reaksiya emas, balki tafakkur orqali baholash qobiliyati bilan bog‘liq. Bundan tashqari, empatiyaning bunday shakli hissiy portlashlar yoki biryoqlama kechinmalarga berilmaslik, balki ongli pozitsiyada turishni bildiradi. Shu nuqtai nazardan, axborotli kompetensiya – bu faqat bilish emas, balki boshqalarni tushunishda tahliliy mexanizmlarni ishga solishdir. Kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, bunday talabalar boshqalar xatti-harakatlarining sabablarini izlashga, ularga tushuncha bilan qarashga intiladilar. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bu bog‘lanish raqamli avlod sharoitida empatiyaning aqlli, tahlilga asoslangan yangi ko‘rinishini aks ettiradi.

Korrelyatsion bog‘lanishlar tahliliga ko‘ra, “ijtimoiy kompetensiya” yuqori bo‘lgan talabalar “empatiyaning kirishish qobiliyati” bilan tavsiflanadigan emotsional uyg‘unlik va boshqalar holatiga sho‘ng‘ish darajasida ham ustunlik ko‘rsatadilar ($r=0,33$; $p\leq 0,05$). Tadqiqot natijalariga ko‘ra, jamoadorlik, hamkorlik va ijtimoiy rollarni muvaffaqiyatli bajarish empatiya holatini chuqur va amaliy his qilishni rag‘batlantiradi. Jumladan, o‘zini boshqalar o‘rniga qo‘yib ko‘rish, ularning kechinmalarini o‘z yuragidan o‘tkazish kabi qobiliyatlar ijtimoiy kompetensiyaning chuqurlashuvi bilan bevosita bog‘liq. Talaba bu darajaga etganida, u nafaqat ruhan, balki axloqiy jihatdan ham ijtimoiy tizimda faol subyektga aylanadi. Bu kompetensiya bilan bog‘liq empatiya shakli, ijtimoiy rollarning samarali bajarilishi uchun asosiy psixologik tayanchni tashkil etadi. Shu asosda aytish mumkinki, ijtimoiy kompetensiya bilan empatik kirishish bir-birini boyituvchi psixologik mexanizmlardir.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, “o‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi” yuqori bo‘lgan talabalar “empatiyaning intuitiv kanali” orqali boshqalar holatini chuqur va

soʻzsiz idrok qilishda ancha sezgir boʻladilar ($r=0,41$; $p\leq 0,05$). Jumladan, oʻz ustida ishlashga intilgan, oʻzini anglashga harakat qiluvchi shaxslar boshqalarning ichki holatini his qilishda ham kuchli ichki sezgiga ega boʻladilar. Intuitiv empatiya verbal axborotdan koʻra, tana harakati, nigoh, intonatsiya va ruhiy muhit orqali axborot qabul qilishga asoslanadi. Shuningdek, rivojlangan oʻzini anglash refleksi intuitiv empatiya orqali boshqalarni chuqurroq idrok qilish qobiliyatiga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, oʻz ustida ishlashga intiluvchi talabalar boshqalarning koʻzga koʻrinmas, ammo his qilinadigan ruhiy belgilarini ham sezishga tayyor boʻladilar.

Endi, “Talabalar kommunikativ kompetensiyasini aniqlovchi soʻrovnomasi” hamda V.V.Boykning “Empatiya darajasini aniqlash diagnostikasi” orqali olingan korrelyatsion bogʻlanishlar tahliliga toʻxtalamiz.

4-jadval

**“Talabalar kommunikativ kompetensiyasini aniqlovchi soʻrovnomasi”
hamda V.V.Boykning “Empatiya darajasini aniqlash diagnostikasi” orqali
olingan korrelyatsion bogʻlanishlar (n=310)**

Omillar	Kommunikativ kompetensiya	Axborotli kompetensiya	Ijtimoiy kompetensiya	Oʻzini-oʻzi rivojlantirish kompetensiyasi
Lingvistik intellekt	0,42*	0,15	0,18	0,10
Musiqiy intellekt	0,15	0,19	0,13	0,14
Matematik-mantiqiy intellekt	0,09	0,37*	0,12	0,19
Fazoviy intellekt	0,06	0,13	0,18	0,11
Tana-kinestetik intellekt	0,14	0,16	0,13	0,14
Ichki olamga yoʻnalganlik	0,19	0,18	0,19	0,36*
Shaxslararo intellekt	0,17	0,15	0,39*	0,15

Korrelyatsion bogʻlanishlar tahliliga koʻra, talabalarning “kommunikativ kompetensiya” darajasi ularning “lingvistik intellekt” koʻrsatkichlari bilan ijobiy bogʻliqdir ($r=0,42$; $p\leq 0,05$). Jumladan, muloqotga faol, fikrini aniq ifoda etuvchi shaxslar nutqiy bilimlarni chuqur oʻzlashtirga ega boʻladilar. Tadqiqot natijalariga koʻra, lingvistik intellekti yuqori talabalar muloqot davomida soʻz boyligidan toʻgʻri foydalanish, muvofiq ohang tanlash va grammatik aniq ifoda berishda ustunlik koʻrsatadilar. Shuningdek, bunday shaxslar turli nutqiy vaziyatlarga moslashib, tilning kontekstual imkoniyatlarini maksimal darajada ishga soladilar. Eʼtiborli jihati shundaki, tilga egalik madaniyati kuchli boʻlgan shaxslar, ijtimoiy guruhlarda taʼsirchan nutqiy pozitsiyani egallashga intiladilar. Shunday sharoitda, kommunikativlik va lingvistik bilim oʻzaro uygʻunlashib, ijtimoiy ishonch va etakchilik salohiyatini shakllantiradi. Demak, tildan foydalanish darajasi nafaqat bilimga, balki ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlikka ham bogʻliq ekanligi isbotlandi.

Natijalar tahliliga ko'ra, talabalar "axborotli kompetensiya"si va ularning "matematik-mantiqiy intellekt"i o'rtasida ijobiy bog'lanish mavjud ($r=0,37$; $p\leq 0,05$). Jumladan, axborotlarni tartibga solish, sintez qilish va ulardan foydalanish layoqati mantiqiy fikrlash, analiz va muammo echish qobiliyatlariga asoslanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, axborotni strukturaviy tahlil qilishga qodir talabalar, matematik asosli tafakkur xususiyatlaridan faol foydalanadilar. Shuningdek, ularda sabab-oqibat bog'lanishlarini topish, axborotni ajratish va unga muvofiq xulosa chiqarish malakalari ancha yuqori darajada shakllangan. Bunday yondashuv, axborotli kompetensiyani empirik bilimlar bilan emas, balki analitik mulohaza bilan mustahkamlaydi. Xulosa o'rnida, "axborotli kompetensiya" va "matematik-mantiqiy intellekt" simbioz tarzda ishlaydigan psixologik va kognitiv strategiyalardir.

Jumladan, "ijtimoiy kompetensiya" darajasi oshgan talabalar "shaxslararo intellekt" darajasi bo'yicha ham yuqori natijalarga ega bo'lishadi ($r=0,39$; $p\leq 0,05$). Tadqiqot natijalariga ko'ra, insonlar bilan ijtimoiy muloqotni samarali tashkil qila oladigan shaxslar, ularning ehtiyojlarini, holatini va emotsional fonini chuqur anglay olishga ham qodirdirlar. Shaxslararo intellekt – bu boshqalarning ruhiy holatini anglash, ularning motivlarini tushunish va mos harakat yo'nalishini tanlash salohiyatidir. Ijtimoiy kompetensiya esa bu salohiyatni amaliyotga yo'naltiruvchi psixologik mexanizm bo'lib xizmat qiladi. Shaxslararo intellekti rivojlangan talaba o'z jamoadoshlarining kayfiyatini oldindan sezish, ijtimoiy konfliktlarni oldini olish va samimiy muhit yaratishda faollik ko'rsatadi. Ijtimoiy kompetensiya, o'z navbatida, bu intellektual sezgirlikni aniq yo'naltiradi va kommunikatsiya jarayonida vazminlik bilan yo'naltirilgan javoblarni shakllantiradi. Demak, bu ikki omil birgalikda shaxslararo munosabatlar muvaffaqiyatining asosiy psixologik zaminini tashkil qiladi. Shu asosda, talabalarda ijtimoiy muhitga integratsiyalashuv va emotsional sezuvchanlik birgalikda shakllanmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, "o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi" va "ichki olamga yo'naltirilganlik" o'rtasida ijobiy aloqadorlik mavjud ($r=0,36$; $p\leq 0,05$). Jumladan, o'zini chuqur anglash, ichki ruhiy holatni boshqarish va o'z-o'zini tahlil qilishga moyillik – rivojlanishga intiluvchi talabaning asosiy belgisidir. Ichki olamga yo'naltirilganlik shaxsning o'z his-tuyg'ulari, fikrlari va ruhiy jarayonlari bilan ishlashga tayyorligidir. O'zini anglash, o'zini rivojlantirishning ilk bosqichi bo'lib, u ichki olamni tahlil qilishdan boshlanadi. Bu bog'lanish shaxsiy refleksiya va ma'naviy intilishlarning kompetensiyaviy shakllanishga qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi. Shuningdek, ichki olam bilan ishlashga tayyorlik, shaxsiy barqarorlik va emotsional mustaqillikni shakllantiradi. Demak, o'zini-o'zi rivojlantirishga tayyor talaba o'z psixologik energiyasini ichki yangilanish va o'zgarishga safarbar eta oladi.

Dissertatsiyaning «**Talabalarda kommunikativ kompetensiyani takomillashtirishning samaradorlik ko'rsatkichlari**» deb nomlangan uchinchi bobi muammoning empirik tahliliga bag'ishlangan bo'lib, olingan natijalarning tahlili, talabalar kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirishga yo'naltirilgan psixologik treninglar dasturi, uning samaradorligini ta'minlaydigan mexanizmlar hamda tajribadan oldingi va keyingi statistik natijalar tahlili keltirilgan.

Talabalar kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirishning amaliy

asoslari, birinchi navbatda, psixologik-pedagogik muhit va maqsadga yo‘naltirilgan trening dasturlari orqali ifodalanadi. Mazkur yo‘nalishdagi amaliy mashg‘ulotlar shaxsni o‘qitish emas, balki uni faoliyatga, fikrlashga, mustaqil qaror qabul qilishga yo‘naltirish tamoyillariga tayangan holda tashkil etiladi.

Birinchi, kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirishda psixologik treninglar alohida o‘rin tutadi. Trening dasturlari orqali talabalar o‘zlarining kommunikativ, ijtimoiy, axborotli va o‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyalarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ushbu treninglar jarayonida empatiya, o‘zaro hamkorlik, qaror qabul qilish, muammoni tahlil qilish va o‘zini anglash kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratiladi. Ikkinchi, amaliy asoslarda loyihalash faoliyati orqali talabalarni o‘qitish ularning faol, mas’uliyatli, tanqidiy va ijodiy yondashuvini rag‘batlantiradi. Loyihaviy o‘quv vazifalari orqali talabalarda axborotni izlab topish, uni tahlil qilish, guruhda taqsimlash va natijani taqdim etish kabi kompetensiyalar shakllanadi.

Guruhlar o‘rtasidagi natijalar “Talabalar kommunikativ kompetensiyasini aniqlovchi so‘rovnoma” va G.Gardnerning “Intellekt turlarini aniqlash metodikasi” asosida baholandi.

5-jadval

“Talabalar kommunikativ kompetensiyasini aniqlovchi so‘rovnoma” orqali olingan natijalari

№	Komponentlari	Guruhlar	N	Aniqlovchi tajriba	Nazorat tajriba	Farqlanish	
				M	M	t	p
1.	Kommunikativ kompetensiya	Tajriba guruhi	90	9,8	11,7	-2,3	0,05*
		Nazorat guruhi	220	10,1	10,4	-1,9	0,14
